

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 4
ISSUE 1

2024

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-4, ISSUE-1



TOSHKENT - 2024



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2024-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mark Tutan
f.f.d., professor (Fransiya)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ramiz Asker
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Yo'ldoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
kotib, o'qituvchi (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Toshqulov Abduqodir
i.f.d., (O'zbekiston)
Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Ko'chiyev Ismat
publisist, O'zbekiston va Belorussiya
yozuvchilar uyushmasi a'zosi (O'zbekiston)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aitpayeva Gulnora
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahmonov Nasimxon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Pervin Chapan
f.f.d., professor (Turkiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibrohimov Elchin
f.f.n., professor (Ozarbayjon)
Jo'rayev Shokirjon
F-m.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nurullo Oltoy
f.f.n., (Afg'oniston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Nodira Afoqova
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Марк Тутан
д.ф.н., профессор (Франция)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рамиз Аскер
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Мухитдинова Бадиа
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
секретарь, преподаватель (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Тошкуллов Абдукодир
к.э.д., (Узбекистан)
Халмуратов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Эшкобил Шукур
Заслуженный работник культуры
Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Тухтасинов Илхам
д.п.н. (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Кочиев Исмаи
Публицист, член Союза писателей
Узбекистана и Беларуси (Узбекистан)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Айтпаева Гулнора
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахмонов Насимхон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Первин Чапан
д.ф.н., профессор (Турция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Иброхимов Элчин
к.ф.н., профессор (Азербайджан)
Джураев Шокирджон
д.ф.-м. н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нурулло Олтой
к.ф.н., (Афганистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Нодира Афокова
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD:

- Mukhiddinov Muslikhiddin**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Sirojiddinov Shukhrat**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Rasulov Ravshankhuja**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Dilorom Salokhiy**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Sodikov Kosimjon**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Mark Tutan**
Doc. of philol. scien., prof. (France)
- Binnatova Almaz Ulvi**
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
- Tukhliev Bokijon**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Shodmonov Nafas**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Ramiz Asker**
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
- Yuldoshev Kozokboy**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Jurakulov Uzok**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Funda Toprak**
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)
- Nabiulina Guzal**
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)
- Yusupova Dilnavoz**
Doc. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Rakhim Ibrokhim**
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)
- Suvonova Jumagul**
Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Asadov Makhsud**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Sultanov Tulkin**
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
- Mirzayev Rahmatilla**
Cand. of legal scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Mukhitdinova Badia**
Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Ruzmanova Rokhila**
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)
- Narziyeva Ma'mura**
Secretary, teacher (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

- Toshkulov Abdukodir**
Doc. of econ. scien., (Uzbekistan)
- Khalmuradov Rustam**
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)
- Eshqobil Shukur**
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)
- Tukhtasinov Ilkhom**
Doc. of pedag. scien. (Uzbekistan)
- Rikhsieva Gulchekhra**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Benedek Peri**
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)
- Kochiyev Ismat**
Publicist, member of the Writers' Union of Uzbekistan and Belarus (Uzbekistan)
- Olimov Karomatullo**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Dadaboev Khamidulla**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Aitpaeva Gulnora**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Rakhmonov Nasimxon**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Shomusarov Shorustam**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Dyu Rye Andre**
Doc. of philol. scien., prof. (France)
- Pervin Chapan**
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)
- Khamroev Juma**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Ibrokhimov Elchin**
Cand. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
- Juraev Shokirjon**
Doc. of phys.-math. scien., prof. (Uzbekistan)
- Khasanov Shavkat**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Nurullo Oltoy**
Cand. of philol. scien., (Afghanistan)
- Khallieva Gulnoz**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Alim Labib**
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)
- Nodira Afokova**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Aftondil Erkinov**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

AZIZ MUSHTARIY!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash ro'g'risida"gi PQ-4865-son Qarorida "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish..." lozimligi alohida ta'kidlangan.

Bu filologiya ilmi va navoiyshunoslik, xususan, adabiy ta'sir, qiyosiy adabiyotshunoslik, matnshunoslik va tarjima masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar zimmasiga jahonning ilg'or texnologiyalari, nazariy g'oyalarga hamohang ilmiy tadqiqotlar yaratish vazifasini yuklaydi. Olimlarimizning ilmiy salohiyati, innovatsion g'oyalarini jahonda targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro nufuzga ega ushbu jurnal ta'xis etildi.

"Alisher Navoiy" deb nomlangan ushbu jurnalda navoiyshunoslik, Navoiy adabiy merosining umumjahon tamaddunida tutgan o'rni va adabiy ta'sir masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarni o'z maqolalari bilan ishtirok etishga taklif qilamiz.

TAHRIRIYAT

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

В Постановлении №ПП-4865 Президента Республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева "О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои" особо отмечается "огромное значение произведений Алишера Навои, в которых нашли глубокое отражение национальные и общечеловеческие ценности, в развитии мировой культуры, их роль в повышении интеллектуального потенциала и духовно-нравственном воспитании молодого поколения, а также в целях обеспечения дальнейшего изучения и популяризации литературно-научного наследия великого поэта и мыслителя..."

Это ставит задачи перед филологами, навоиоведами, исследователями литературного влияния, сравнительного литературоведения, текстологии и вопросов перевода создания научных исследований, соответствующих передовым мировым технологиям и теоретическим идеям. В целях пропаганды и продвижения научного потенциала и инновационных идей наших ученых учреждён данный международный журнал.

Приглашаем публиковать свои статьи в нашем журнале "Алишер Навои" отечественных и зарубежных исследователей, занимающихся изучением жизни и творчества литературы Навои, его роли в мировой литературе, проблемами литературного влияния и сравнительной поэтикой.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

DEAR READER!

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "On the celebration of the 580th anniversary of the great poet and thinker Alisher Navoi" No PP-4865 given the invaluable role of cultivating high moral qualities in their hearts, as well as the need to further study and widely promote the literary and scientific heritage of the great poet and thinker in our country and internationally "

This puts the task of researchers in the field of philology and Navoi studies, in particular, literary influence, comparative literature, textual studies and translation, in creating scientific research in harmony with the world's advanced technologies and theoretical ideas. This internationally renowned journal was established to promote and support the scientific potential and innovative ideas of our scientists around the world.

In this magazine, called "Alisher Navoi", we invite researchers who are interested in Navoi studies, the role of Navoi's literary heritage in world civilization and literary influence to participate with their articles.

EDITORIAL

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. **Dilorom Salohiy**
NIZOMIY VA NAVOIY DOSTONLARIDA MAJOZIY TASVIR NAMUNASI.....9
2. **Nurboy Jabborov**
TURKIY RUHIYAT – ALISHER NAVOIY IJOD KONSEPSIYASINING ASOSI.....15
3. **Ozoda Tojiboyeva**
ALISHER NAVOIY IJODINING ROSSIYADAGI MANBALARI VA TAVSIFLARI.....23
4. **Sherxon Qorayev**
TEMURIY SHAHZODA MUHAMMAD SULTON VA ALISHER NAVOIY.....30

MA'RIFAT YOG'DUSI

5. **Serpil Soydan**
NEVÂYÎ'NIN FEVÂYIDÜ'L-KIBER DÎVÂNINDA ÂKIBET / HALAS / RAHM / TEMENNA / VEFA REDIFLI GAZELLER ÜZERINE.....36
6. **Martaba Melikova**
ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ.....44

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

7. **Funda Toprak**
BEDÂYÎÜ'L BÎDÂYE'DE MİTOLOJİK UNSURLAR ('ANKÂ-KÂF-SİMÜRĞ VE EJDERHA).....52
8. **Shahlo Rahmonova**
NAVOIY LIRIKASIDA IJTIMOY FAOL AYOL OBRAZI VA POKIZA ISHQ MASALASI.....61
9. **Farida Karimova**
ALISHER NAVOIYNING "BADOYE' UL-BIDOYA" DEVONI DEBOCHASI ALOHIDA ADABIY HODISA SIFATIDA.....71

ILM, OLAM VA OLIM

10. **Elmurod Nasrullayev**
NAVOIYGA DOIR TARIXIY MANBALAR VA ULARNING ILK O'RGANILISHI MASALALARI.....79
11. **Шоира Темирова, Гулбахор Хаджикурбанова, Саодат Юлдашева**
ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ И ДОСТИЖЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ.....87

TAQRIZ, TALQIN VA TAHLIL

12. **Ibrohim Haqqul**
SAKINAMEH IS A POEM OF LIFE AND JOY (*Introduction to the book "Sakinameh: history and poetics" by Professor Maksud Asadov*).....92
13. **Ozoda Tojiboyeva**
ELLARNI BIRLASHTIRGAN SHOIR (*Turkiya davlati Bursa shahridagi O'zbek tili va madaniyati markazi ochilishi va "Alisher Navoiy va XXI asr" xalqaro konferensiyasi bo'yicha*).....95

NAVOIY POETIKASI

14. Maysara Eshniyazova

ALISHER NAVOIYNING “SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARIDA DINIY-TASAVVUFIIY
G‘OYALARNING POETIK IFODASI.....101

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

15. Hamidulla Dadaboyev

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA IFODALANGAN BOSH VA ICH KIYIM
NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARDA VOQELANISHI.....117



16. Ma‘mura Zohidova

O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARDA QO‘LLANGAN AYRIM SO‘ZLAR
IZOHI.....124

NAVOIY VA TA‘LIM-TARBIYA MASALALARI

17. Gulnoza Xoldorova

ALISHER NAVOIY DIDAKTIK QARASHLARINING TURKIY ILDIZLARI.....129

ISSN: 2181-1419
www.tadqiqot.uz**ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY**Sherxon QORAYEV,**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
E-mail: sherxonqoraev@gmail.com**TEMURIY SHAHZODA MUHAMMAD SULTON VA ALISHER NAVOIY****For citation:** Sherkhon Qorayev. PRINCE TIMURID MUHAMMAD SULTAN AND ALISHER NAVOI. Alisher Navoi. 2024, vol. 4, issue 1, pp. 30-35 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11507910>**ANNOTATSIYA**

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy yoshligidan o‘zi tug‘ilib o‘sgan Xuroson o‘lkasida mashhuri zamon bo‘lgan. Oddiy odamlardan tortib hukmdorlargacha uning she‘rlarini sevib mutolaa qilishgan. Ana shunday she‘riyat ixlosmandlaridan biri bo‘lgan temuriy mirzo – Muhammad Sultondir.

Shoir temuriy shahzoda nomini o‘zining “Badoyi ul – bidoya” devoni Debochasida hurmat bilan qayd etadi. Ma‘lumotlarga qaraganda, Muhammad Sulton boshchilik shahzodalar Navoiy she‘rlarini hali siyohi qurimasdan shoirdan olib, o‘qib zavqlanganlar hamda oqqa ko‘chirtirib, she‘riyat ixlosmandlari o‘rtasida tarqatganlar.

Eng qizig‘i, Amir Temur avlodlari orasida o‘nlab Muhammad Sulton ismli shahzodalar yashab o‘tgan. Ushbu maqolada esa, Navoiy “Badoyi ul-bidoya” devoni Debochasida qaysi Muhammad Sultonni nazarda tutgani haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Temuriy mirzolar, nazm, saltanat ganji, faqru fano xayli, shohu darvesh.

Шерхон КОРАЕВ,Доцент Института ирригации и
агротехнологий Национального исследовательского
университета «ТИКХММИ»,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
E-mail: sherhonqoraev@gmail.com**ПРИНЦ ТИМУРИД МУХАММАД СУЛТАН И АЛИШЕР НАВОИ****АННОТАЦИЯ**

Великий поэт и мыслитель Алишер Навои с юности был известен на земле Хорасана, где он родился и вырос. От простых людей до правителей Тимуридов – они с любовью читали его стихи. Одним из таких любителей поэзии является Тимурид мирза Мухаммад Султан.

Имя Тимуридского царевича поэт почтительно упоминает в предисловии к своей поэме «Бадойи уль-Бидая». По информации, тимуридские мирзы во главе с Мухаммадом Султаном

взяли стихи Навои еще до того, как высохли чернила, с удовольствием прочитали их, переписали на белую бумагу и раздали любителям поэзии.

Самое интересное, что среди потомков Амира Темура жили десятки мирзы по имени Мухаммад Султан. В данной научной статье ведется дискуссия о том, какого принца Тимуридов имел в виду Мухаммад Султан в предисловии к дивану Навои «Бадойи ул – Бидая».

Ключевые слова: Тимурид Мирзас, назм, салтанат Ганджи, Фақру фано хайли, Шаху дервиш.

Sherkhon QORAYEV,
Associate Professor of the Institute of Irrigation
and Agricultural Technologies of the
National Research University "TIKXMMI",
doctor of philosophy (PhD) in philological sciences,
E-mail: sherkhonqoraev@gmail.com

PRINCE TIMURID MUHAMMAD SULTAN AND ALISHER NAVOI

ANNOTATION

The great poet and thinker Alisher Navoi has been famous since his youth in the land of Khurasan, where he was born and raised. From ordinary people to Timurid rulers, they read his poems with love. One of such lovers of poetry is Timurid mirza Muhammad Sultan.

The poet respectfully mentions the name of the Timurid prince in the Preface of his poem «Badoyi ul-Bidaya». According to information, the Timurid mirzas headed by Muhammad Sultan took Navoi's poems before the ink was dry, enjoyed reading them and copied them on white paper and distributed them among poetry lovers.

The most interesting thing is that dozens of mirzas named Muhammad Sultan lived among the descendants of Amir Temur. In this scientific article, there is a debate about which Timurid prince was meant by Muhammad Sultan in the preface of Navoi's «Badoyi ul-Bidaya» divan.

Key words: Timurid Mirzas, nazm, sultanat ganji, faqru fano khayli, Shahu Dervish.

Ma'lumki, shoirlar sultoni Alisher Navoiy yoshligidanoq Xuroson mamlakatida mashhur bo'lgan. Uning nazmiy durdonalarini nafaqat she'riyat ixlosmandlari ziyolilar, darvishlar, hunarmandlar, balki temuriylar xonadonining vakillari – shahzodalar ham sevib mutolaa qilgan. Xondamirning mubolag'aroq izohiga ko'ra, ayrim she'riyat ixlosmandlarining yashashdan maqsadi ham Navoiy she'rlarini o'qib, zavqlanishdan iborat bo'lgan. “Badoyi ul-bidoya” devoni debochasida Navoiy o'z she'rlarini sevib o'qiydigan ashaddiy muxlislaridan biri “Shoh nishon” va “Shohi darvish” shahzoda Muhammad Sul-ton haqida shunday to'xtalgan:

“Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,

Til aylar edi nazm libosida ado.

Ul nazmg'a jonin qilibon xalq fido,

Solurlar edi gunbazi gardung'a sado.

Bu vayron tab'ni bayt etsa mastur,

Tutib shuhrat, nechukkim bayti ma'mur.

Xarobat ichra paydou nihoni,

Ul erdi xalqning rutbaal-lisoni.

Yo'qkim, xarobat dard no'shlari, balki munajat xirqapo'shlari va demaykim avom arozili, balki xavos afozilining tillariga joriy va ko'ngullariga koriy tushar edi. Ul zamonning karimul-xulq ozodalari, balki azimush-sha'n shahzodalari iltifotig'a musharraf bo'lar erdi. Xususan, saltanat ganjining durri samini va qanoat kunjining xoknishini, ilmu zako ahlining yagonasi, faqru fano xaylining benishonasi, itik zehni daqoyiq rishtalarining girihkushoyi va arig' tab' haqoyiq chehralarining parda raboyi:

Tab'i darveshu o'zi shoh nishon,

Shohi darvesh Muhammad Sulton [Navoiy, 1987:9]”.

Xo’sh, Navoiy madh etgan mazkur “shohi darvesh” Muhammad Sulton kim? U adabiyotshunos Yoqubjon Ishoqov aytganidek, Boysunqur Mirzoning o’g’li, Fors va Iroqi Ajam sultoni Sulton Muhammad (1418—1451) Mirzomi? Ma’lumki, bu hukmdor 1449 - yilda Xurosonni egallab, Hirot taxtiga o’tirgan. G’iyosiddin Xondamirning yozishicha, “Mirzo Sulton Muhammad aql va donolik etukligi bilan tanilgan saxovat va muruvvati ko’pligi bilan maqtalغان bir podshoh bo’lib, o’ta shijoat va jasurligi orqasida xatarli janglarda shaxsan o’zi qatnashib, urush-savash ishini qizdirardi. Dushman lashkari qanchalik kuchli va shavkatli bo’lmasin, bundan sira ham hayiqmasdi. Saxovat va tantilikda mo’tadillik yo’lini tutardi. Ya’ni, xasislik ham qilmas, ortiqcha isrofga ham yo’l qo’ymasdi. Bir gal xos kishilaridan bittasi (ukasi) Mirzo Abulqosim Boburning bag’ishlov ishida ko’p sarfligi va qo’li ochiqligini aytdi va “shunday ekan, nega Siz bu ishda ul janobga ergashmaysiz?” deya so’rashdi. Mirzo Sulton Muhammad uning javobida ushbu baytni o’qidi.

Bayt:

Olim va johilni farq etar tamiz,

U doim tizginda. Bu-chi? Boshvoqsiz.

Mirzo Sulton Muhammad bin Boysunqur Mirzo bin Shohrux Mirzo maqtov sifatli hoqon Shohrux Mirzoning hayotlik zamonida umrining besh yilini Iroqi Ajam mamlakatida davlat va iqbol bilan o’tkazdi. Shohrux Mirzo vafotidan so’ng Mirzo Abdulloh hukmronligi ostidagi Sherozga hujum qildi va amakivachchasini engib, Fors va Iroqi Ajam hukmdoriga aylandi.

Ul shahzoda ulug’vor otasi vafotidan so’ng besh yil saltanat va davlat uzra umr kechirdi va 855 - (1451) yilda Chinoron urushida Mirzo Abulqosim Bobur qo’liga tushib, mulklarning qudratli moliki taqdiri uning hayoti palosini yig’ishtirdi [Xondamir, 2013: 528]”. Bizningcha, Xondamirning fikrlariga tayansak, shoir she’rda bu hukmdorni nazarda tutmagan? Albatta, sakkiz yoki o’n yashar shoirning Hirotida Sulton Muhammad bilan uchrashgani ehtimoldan xoli emas. Biroq, tarixiy ma’lumotlar shuhratparast temuriyzodani shoirtabiati yoki darveshsifat shoh bo’lganini inkor etadi. Nazarimizda, “Debocha”da zikr etilgan quyidagi xususiyatlar Boysunqur Mirzoning o’g’lida ko’zga tashlanmagan:

- 1.Saltanat ganjining durri samini;
- 2.Qanoat kunjining xoknishini;
- 3.Ilmu zako ahlining yagonasi;
- 4.Faqr fano xaylining benishonasi;
- 5.Itik zehni daqoyiq rishtalarining girihkushoyi;
- 6.Arig’ tab’ haqoyiq chehralarining parda raboyi;
- 7.Darveshliqlarga moyil;
- 8.Shohi darvesh.

Ammo, adabiyotshunos Yoqubjon Ishoqovning fikricha, “darveshvasht shoh” aynan ana shu Boysunqur Mirzoning o’g’li Sulton Muhammaddir. U yosh Navoiy ijodiga katta e’tibor bilan qaragan va quyidagi yoshlik davrida yozilgan g’azal unga bag’ishlangan:

Charx ayirdi tez etib, nolamni ham, ohimni ham,

Mehribon shohimni ham, nomehribon mohimni ham.

Har kishi dilxohu diljo’yum edi, soldi yiroq,

Shohi diljo’yumni dog’i mohi dilxohimni ham...

Ey Navoiy, shohim ayvoni, mohim husnin ko’rib,

Jon tarabgohimni topsa, ko’z nazargohimni ham [Navoiy, 1968: 228].

Holbuki, adabiyotshunos olim Yo. Ishoqovning yozishicha, Sulton Muhammad vafotidan so’ng shoirni hukmdorning ukasi Sulton Abulqosim Bobur o’z tarbiyasiga olgan [Ishoqov, 1983: 29].

Ko’plab temuriy shahzodalar qatori Navoiy she’rlarini sevib o’qigan va oqqa ko’chirib tarqatgan Muhammad Sulton Mirzo haqida qanday ma’lumotga egamiz? Amir Temur shajarasida ko’plab Muhammad Sulton nomli shahzodalarga ko’zimiz tushdi. Keling ma’lumotlarni bir tahlil qilib chiqsak. Birinchisi, Samarqand hokimi va Hulogu mulki hukmdori Muhammad Jahongir Mirzoning o’g’li Muhammad Sulton. U 1376-1403 - yillarda yashab o’tgan. Darvoqe, she’rda bu shahzoda umuman ko’zda tutilmagan. Ikkinchisi, mazkur Muhammad Sultonning nabirasi

Muhammad Sul-ton ibn Muhammad Jahongirdir. U otasining mulki Hisorda 1423-1448 - yillarda yashab o'tgan. Muhammad Sul-tonning Xuroson poytaxti Hirotga kelgani yoki etti yashar Alisher bilan suhbatlashgani haqida dalillar yo'q.

Uchinchisi, Umarshayx Mirzo naslidan bo'lgan Muhammad Sul-ton (1458-1484) dir [Sattoriy, 2006: 54]. Sul-ton Husayn Boyqaroning Oqobegim ismli opasining o'g'li, tog'asi saroyidagi sohibixtiyor Kichik Mirzo ota tarafdin shoir Sayyid Ahmad Mirzoning o'g'li Sul-ton Ahmadning farzandidir. Ammo, Alisher Navoiy "To'la asarlar to'plami"ning beshinchi jildi izohlarida "Kichik Mirzo – Ulug'bek Mirzo o'g'li Mironshohning nabirasi, Husayn Boyqaroning opasi Oqobegimning o'g'li [Navoiy, 2012:840]" deb ko'rsatilgan. Xondamir "Xulosat ul-axbor"da "Kichik Mirzo nomi bilan mashhur bo'lgan Mirzo Muhammad Sul-tonning otasi Sul-ton Ahmad ibn Mirzo Sayyid Ahmad ibn Mirzo Mironshoh" deb yozgan [Xondamir, 1985:58]. Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, Kichik Mirzo Hakim Sattoriy "Oltin silsila"si kitobida aytganidek, Umarshayx Mirzo naslidan emas, balki "yashagan yillari haqida ma'lumot saqlanmagan [Sattoriy, 2006:65]", deb yozilgan Sayyid Ahmad ibn Mironshoh Ko'ragon (Manbalarda shahzodaning ismi Saydi Ahmad, Sayyid Ahmad, Sayid Ahmad shaklida keltirilgan) avlodiga mansubdir. Tarixda Umarshayx Mirzoning Sayid Ahmad ismli o'g'li ham bo'lgan, bo'lishi ehtimol. Ammo, Adabiyotshunos M.Abduvohidova ham o'zbek va fors tillarida Saydiy, Sayid, Saydi taxalluslari bilan she'rlar yozgan Sayyid Ahmad Sohibqiron Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh farzandi ekanini qayd etgan [Sayid Ahmad, 1987:7]. Adabiyotshunos haq. Chunki shoir Sayyid Ahmadning o'zi ham "Taashshuqnoma" dostoni yakunida "Duogo' ibni Mironshoh bo'lg'ay [Sayid Ahmad, 1987:127]" deb Mironshohning o'g'li ekanligini ta'kidlagan. Binobarin, bizningcha ham, Navoiy, Xondamir va ularning zamondoshlari Kichik Mirzo deganda aynan Mironshohning o'g'li temuriy shoir Sayyid Ahmad Mirzoning nabirasini nazarda tutishgan. Xondamirning yozishicha, "Mirzo Kichik nomi bilan tanilgan shahzoda Muhammad Sul-ton Mirzo bin Sul-ton Ahmad Mirzo xushsurat yigit bo'lib, yaxshi xulq, toza ko'ngillik sifat-lari bilan ta'riflangan, shirin so'z va chiroyli ishlari hammaga yoqqan edi. Olimu fozillar suhbatiga bag'oyat moyil, barcha himmatini ilmiy masalalarni o'rganish sari qaratgan, ilohiy va dunyoviy ilmlarni o'zlashtirishda yagona hamda aqliy va naqliy fanlarni egallashda tengsiz edi. Ilmu fazilat-lari borasida oqillar bergan sharh bu shahriyorning kamolotlari oldida ummondan bir tomchiyu donishmandlar so'zlari obdor lafzlariga nisbatan cheksiz dengizdan bir qatra (edi) [Xondamir, 2013:777]". Navoiy Xondamirning mazkur fikrlarini to'ldirib, "Majolis un-nafois"da **Kichik Mirzo "xub tab'liq, tez idroqliq, sho'x zehnlilik, qaviy hofizaliq yigit erdi. Oz fursatda yaxshi tolibi ilm bo'ldi va ko'proq ulum va funundin o'z mutolaasi bila vuquf hosil qildi. She'r va muammoni xo'b anglar erdi, balki ko'ngli tilasa ayta ham olur erdi. Bovujidi bu fazoyil darveshliqlarga moyil bo'lub,** Makka ziyorati sharafig'a musharraf bo'ldi [Navoiy, 2012:415]", degan. Shoirlar sul-toni "Xamsat ul-matahayyirin"da shahzodani darveshlarga muxlis va muhtoj zot sifatida ta'riflagan: "Kichik Mirzo...faqru fano ahlig'a muxlis va niyozmand erdi[Navoiy, 2012: 760]". Faxriy Hiraviy esa shahzoda "...Nihoyatda kamtar va aqlli edi. Saltanat rioyatida u xususida shunday bo'lganki, Mirzo Sul-ton Husaynni Ulug' Mirzo derdilar va uni (esa) Kichik Mirzo [Fahriy, 2014:59]," deb yozgan. Bobur "Boburnoma"da ham Kichik Mirzo haqida yuqoridagi ta'riflarga mushtarak fikrlar bildirgan: "Burunlari tag'oyisig'a mulozamat qilur edi, so'ngra sipohiylikni tark etib, mutolaag'a mashg'ul bo'ldi. Derlarkim, donishmand bo'lib ekandur. Tab'i nazmi ham bor ekandur. Bu ruboiy aningdur:

Umre basaloh mesutudam xudro,

Dar shevayi zuhd menamudam xudro.

Chun ishq omad kadam zuhdu, chi saloh,

Al-minnatu lilloh ozmudam xudro.

(Mazmuni: Umr bo'yi o'zimni yaxshilik bilan maqtab yurdim, O'zimni zohid va taqvodor qilib ko'rsatdim. Ishq kelgach, qani o'sha zohidligu, qani o'sha yaxshi fazilatlarim? Xudoga shukrki, o'zimni sinab oldim.)

Mullo Abdurahmon Jomiyning ruboiysi bilan tavorud (aynan bir xil) bo'lgan [Bobur, 1990:147]".

Bundan tashqari, Muhammad Sulton Mirzo (Kichik Mirzo) kabi shahzodalar mashhuri zamon bo'lgan "nazm mulkin til chekib olmish" [Navoiy, 2012: 323] Navoiy she'rlarini tinglashni yoqtirishgan va yangi yozilgan g'azallarni shoirdan olib, oqqa ko'chirtirib, she'riyat ixlosmandlari o'rtasida tarqatib yurishgan. Ya'ni, Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Abqallohu kanza fanoihi va adoma izza inoyakim matla'i ortuqroq yo tamom g'azal tilim xomasi taqririg'a kelsa erdi, yo xomam tili tahrir qilsa erdi, filhol ani mushkbor qalam birla kofur kirdor safhag'a raqam qilib, oqu qaroni andin maxtut qilur erdi va yana ham anga qarobat hisobliq tez fahm shahzodalar, va musohib intisobliq xushtab' mirzodalar mutaaddid savod qilib soyir ulusg'a yoyilur erdi va oshiqpesha beqarorlarning jalisi mehnati, va ma'shuq sheva gul uzorlarning anisi suhbat bo'lub, xosu avom orasida ishtihori tamom va intishori molokalom topar erdi [Navoiy, 1965:426]". Binobarin, bu bilan she'riyat ixlosmandlarini g'azal mulki sultonining ijod namunalaridan bahramand qilishgan.

"Xamsat ul-mutahayyirin"dan ham bilsa bo'ladiki, Kichik Mirzo Navoiy ijodini bevosita va bilvosita kuzatib borgan. Unda yozilishicha, Kichik Mirzo Navoiyning o'z zamonida mashhur bo'lgan "Tahfat ul-afkor" qasidasidagi quyidagi baytini maktubiga qo'shib, Samarqandga avliyolar sultoni Xoja Ahror Valiy huzuriga yuborgan.

Yak nazar farmo, ki mustasno shavam z-abnoi jins,

Sag chu shud manzuri Najmiddin sagonro sarvar ast [Navoiy, 2012:760].

(Mazmuni: Bir nazar qil, toki o'z tengdoshlarim aro mumtoz bo'layin, axir it Najmiddin nazariga musharraf bo'lganda, itlarga sarvar bo'ldi).

To'rtinchisi, Sulton Husayn Mirzoning akasi Boyqaroning o'g'li Sulton Muhammaddir. 1449-1483 - yillarda yashagan bu shahzoda amakisining saroyida xizmatda bo'lgan. Uning she'r yozgani, she'riyatga moyilligi hamda darveshvasht bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar uchratmadik. Beshinchisi, yana Mironshoh Mirzo naslidan bo'lgan Sulton Muhammad Mirzo. Yashagan yillari noma'lum va u haqda ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Oltinchisi, Sulton Abusaidning o'g'li Sulton Muhammad (Taxminan 1452-1494 - yillarda yashagan) dir. Xondamirning yozishicha, "aka-ukalar Sulton Muhammad va Shohrux Mirzolar hazrat Said sulton (Sulton Abusaid) ning mag'lubiyati kuni oqqo'yunlilar hukmdori Amir Hasanbekning mulozimlari qo'lga tushdilar va ancha vaqt Ozarbayjondagi qa'lalarda tutqunlikda saqlanib, nihoyat xaloslik topdilar. Ammo yomon holat va parishonlikda umr kechirdilar. Hijriy 899 - (Milodiy 1493 - yili) yili esa Shohrux Mirzo saltanat poytaxti Hirot sari yo'lga tushib, Soriy viloyatiga etib kelgan chog'da Alloh Taoloning mag'firati panohiga ko'chib o'tdi.

Sulton Husayn Mirzo uning jasadini Hirotga keltirish uchun Soriy shahriga odam jo'natdi. Jasad olib kelingach, sultonlar qoidasi bo'yicha mahdi ulyo Gavharshod Og'a madrasasiga eltdilar va taomilga ko'ra dafn qildilar. Sulton Muhammad Mirzo ukasi vafotidan so'ng ham olamdan o'tganga qadar o'sha mamlakatda tutqunlikda bo'ldi [Xondamir, 2013:648]". Taqdiri ayanchli kechgan bu shahzoda otasi davrida Hirotta Navoiy bilan uchrashgan yoki uchrashmagani haqida ma'lumot yo'q. Yettinchisi, Navoiy bilan yaqindan suhbatda bo'lgan shohi Badaxshon – Sulton Muhammaddir. U "Bag'oyat xushtab' va parhezkor mo'min bo'lgan. Va Badaxshon saltanati necha yil uning xonadoni qo'lida bo'lib, hech podshoh ola olmagan [Fahriy, 2014:50]". Boburning yozishicha, "(Yunusxonning xotini Shohbegim Badaxshon shohi Shoh Sulton Muhammadning qizi edi. Badaxshon shohlari o'z nasablarini Iskandari Faylaqusga (Makedoniyalik Iskandar) bog'lashadi, deydilar. Bu shohning yana bir qizi (Shahzodabegim)ni Shohbegimning egachisini Sulton Abusaid Mirzo olgan edi. Undan Abobakr Mirzo bino bo'lgan edi [Bobur, 2008:35]". Badaxshon shohlari Amir Temur va Temuriylar davrida hokimiyatni tan olib, ularning nomidan davlatni idora qilganlar. Biroq, keyinchalik mustaqillikka intilganliklari uchun Sulton Abusaid shoh Muhammad Sulton va uning o'g'lini qatl etadi. Shoh La'liy bunga qadar Hirotta ushlab turilgan. O'sha vaqtda Alisher Navoiy u bilan tanishgan va muloqot qilgan [Bobur ensiklopediyasi, 2014:578]. Shundan so'ng Navoiy Shayx Sadruddin Ravosiyning muridi - La'liy taxallusli shohni xushtab' bo'lganini tazkirasida qayd etgan [Navoiy, 1966:43]. "Shoh she'rni yaxshi aytardi [Fahriy, 2014:50]", deb yozgan bu haqda Faxriy Hiraviy. Chunonchi, "Debocha"da Badaxshon shohi nazarda tutilgan, deya olmaymiz. Chunki, shoir devon muqaddimasida aytib o'tgan fazilatlar Badaxshon shohi haqidagi tavsiflarga mos tushmaydi.

Darhaqiqat, Navoiy yashagan davrda saroyda ko‘plab temuriy shahzodalar istiqomat qilgan. Ular Navoiyning she‘rlarini o‘qib va yodlab mushoira kechalarida aytib, zavqlanib yurishgan. Yuqorida aytganimizdek, Navoiy “Badoyi ul-bidoya” debochasida ana shunday she‘riyatsevar shahzodalardan biri – Muhammad Sultonni zikr etgan. U esa bizningcha, Sulton Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar tarbiyasini olgan “saltanat ganjining durri samini”, “qanoat kunjining xoknishini”, “ilmu zako ahlining yagonasi”, “faqr fano xaylining benishonasi”, “itik zehni daqoyiq rishtalarining girihkushoyi”, “arig‘ tab‘ haqoyiq chehralarining parda raboyi”, “darvishliqlarga moyil” Muhammad Sulton ismli Kichik Mirzo bo‘lishi mumkin. “Badoyi ul-bidoya” devoni tartib berilgan 1478-1479 - yillarda shahzoda yigirma-yigirma bir yosh atrofida bo‘lgani holda temuriylarning Hirot saroyida yashagan. Demak, oddiy va darvish shahzoda shoirlar sultoni bilan ko‘p marotaba suhbatlashish hamda uning hurmatini qozonish baxtiga muyassar bo‘lgan. “Majolis un-nafois”dagi qaydlarni “Badoyi ul-bidoya” devoni debochasidagi ta‘riflar bilan taqqoslab hamda tarixiy manbalarga asoslanib, aytish mumkinki, Alisher Navoiy “Badoyi ul-bidoya” devoni debochasida Muhammad Sulton deganda, Husayn Boyqaroning jiyani Kichik Mirzoni nazarda tutgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Balki yana boshqa temuriy shahzoda Muhammad Sulton ham bo‘lgandir. Ammo buyog‘i bizga qorong‘u.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Alisher Navoiy. Ilk devon. 1466 yili ko‘chirilgan qo‘lyozmaning faksimal nashri. Nashrga tayyorlovchi H. Sulaymon. T.: Fan, 1968.-B.294.
2. Alisher Navoiy. Badoyi ul-bidoya. MAT. Yigirma tomlik. Birinchi tom. T.: Fan, 1987.-B.689.
3. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. Xazoyin ul-maoniy. TAT. O‘n jildlik. Birinchi jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.806.
4. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutaxayyirin. TAT. Beshinchi jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.-B. 860.
5. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T.: Badiiy adabiyot, 1966.-B. 216.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.T. Yulduzcha, 1990.-B.368.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq NMAK BT, 2002.-B. 368.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK BT, 2014.-B. 744.
9. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. T.: Fan, 1983.-B.167.
10. Isoqov Yo. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. T.: Fan, 1965.-B. 142.
11. Sayid Ahmad. Taashshuqnoma. Muborak maktublar. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1987.-B.300.
12. Sattoriy H. Oltin silsila. T.: Sharq NMAK BT, 2006.-B.64.
13. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. T. O‘zbekiston, 2013.-B.1266.
14. Xondamir. Xulosat ul-axbor. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1985.-B. 224.
15. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. T.: Mumtoz so‘z, 2014.-B.192.
16. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. Qarshi: Intellekt, 2023.-B.262.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-4, ISSUE-1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000